

<https://copenhageneconomics.com/wp-content/uploads/2024/12/Copenhagen-Economics-Study-on-shared-liability-regime-20241203-clean-final.pdf> (data obrasheniya: 04.03.2026).

3. Gathergood, J. *Using Behavioural Economics to Understand and Prevent Authorised Push Payments Fraud* / J. Gathergood, Axiom Economics. – London: Payment Systems Regulator, 2025. – 38 p. – URL: <https://www.psr.org.uk/media/efpdiwpk/using-behavioural-economics-to-understand-and-prevent-app-fraud.pdf> (data obrasheniya: 04.03.2026).

4. Sovern, J. *Written Notice of Cooling-Off Periods: A Forty-Year Natural Experiment in Illusory Consumer Protection and the Relative Effectiveness of Oral and Written Disclosures* / J. Sovern // *University of Pittsburgh Law Review*. – 2014. – Vol. 75. – P. 333. – URL: [https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract\\_id=2103807](https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=2103807) (data obrasheniya: 04.03.2026).

## **TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KREDIT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**

**Tajiddinov Jamshiddin Shamsutdinovich**

*Toshkent axborot texnologiyalari universiteti mustaqil izlanuvchi*

**Annotatsiya:** bank faoliyatini tartibga solish bo'yicha "yo'l haritasi" tasdiqlandi; "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJ tashkil etildi; "Moliyaviy sektorni baholash" (FSA); Bazel qo'mitasining tamoyillari; tadbirkorlarni "champion" tadbirkor toifasiga olib chiqish; Biznesni kafolatlash milliy kompaniyasi" AJ tashkil qilindi.

**Kalit so'zlari:** Tadbirkorlik faoliyati; yo'l haritasi; bank; moliya; kredit; sug'urta; champion tadbirkor; investitsiya; strategiya

"2025–2028-yillarda banklar faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan "Yo'l xarita" tasdiqlandi. 2024–2025-yillarda Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon banki tomonidan Moliyaviy sektorni baholash dasturi (FSAP) doirasida O'zbekistonning bank-moliya tizimi ilk marotaba kompleks baholashdan o'tkazildi. Mazkur baholash natijasida Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon banki tomonidan "Moliyaviy tizim barqarorligini baholash" (FSSA), "Moliyaviy sektorni baholash" (FSA) va "Bank nazoratining samarali amalga oshirilishi bo'yicha bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining asosiy tamoyillariga muvofiqligini baholash" (BCP) hisobotlari chop etildi hamda ushbu hisobotlarda bank-moliya tizimini takomillashtirishga qaratilgan qator tavsiyalar berildi.

Mazkur hisobotlar hamda baholovchilarning tavsiyalari asosida 2025–2028-yillarda banklar faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish tizimini

yanada takomillashtirishga qaratilgan “Yo‘l xarita” ishlab chiqilib, Markaziy bank boshqaruvi tomonidan tasdiqlandi.<sup>[2]</sup>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, Tadbirkorlik subyektlarini yangicha yondashuvlar asosida qo‘llab quvvatlash chora tadbirlari to‘g‘risida, PF-176-son. Ushbu Farmonni qabul qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsad etib 2026-2027-yillarda “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJ tomonidan 4 trillion so‘mlik moliyaviy qo‘llab-quvvatlash choralari taqdim etish orqali 5 mingta tadbirkorlik loyihalarini amalga oshirish belgilangan.<sup>[1]</sup>

Iqtisodiyot fanida tadbirkorlik faoliyatiga doir dastlabki tadqiqotlar XVIII asrda R. Kantilyon, A. Oyurgo, F. Kene, A. Smit va J.B. Sey asarlarida amalga oshirila boshlandi. Biroq hozirga qadar jamoatchilik fikrida «tadbirkorlik» tushunchasining ko‘p ma‘noliligi saqlanib qolmoqda.

Ko‘pincha ilmiy adabiyotlarda ushbu tushuncha haqida, u favqulodda hodisaning iqtisodiy, tashkiliy va ruhiy tavsiflari to‘plamidan iborat, degan tasavvurlar mavjud «Biznes» so‘zi inglizcha bo‘lib, u tadbirkorlik faoliyati yoki boshqacha aytganda, kishilarning foyda olishga qaratilgan tadbirkorlik faoliyatidir. «Biznesmen» (tadbirkor) atamasi birinchi marotaba Angliya iqtisodiyotida XVIII asrda paydo bo‘lib, u «mulk egasi» degan ma‘noni bildiradi. Jumladan, Adam Smit tadbirkorni mulk egasi sifatida ta‘riflab, uni foyda olish uchun qandaydir tijorat g‘oyasini amalga oshirish maqsadida iqtisodiy tavakkalchilikka boradigan kishidir, deb ta‘kidlaydi.

Tadbirkorning o‘zi o‘z ishini rejalashtiradi, ishlab chiqarishni tashkil etadi, mahsulotni sotadi va olgan daromadiga o‘zi xo‘jayinlik qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida»gi qonunida tadbirkorlik faoliyati tushunchasiga quyidagicha ta‘rif berilgan: «Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) - tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o‘zi tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyatidir»<sup>[3]</sup>

Tadbirkorlik faoliyatini kreditlashda, moliya muassasalari tomonidan juda ko‘p amaliy ishlar qilinmoqda, bu ishlarni amalga oshirishda banklar, moliya tashkilotlari, sug‘urta kompaniyalari ishtirok etib kelmoqda. Bu jarayon O‘zbekiston uchun ham dolzarb ahamiyatga ega, chunki mamlakat iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, raqamli transformatsiyani amalga oshirish va moliyaviy xizmatlar sohasida raqobatbardoshligini oshirishni maqsad qilmoqda. Tadqiqot ishini yoritishda ilmiy abstraksiyalash, mantiqiy fikrlash, ma‘lumotlarni guruhlash va taqqoslash usullaridan foydalanildi.

2026–2027-yillarda 4 trillion so‘mlik moliyaviy qo‘llab-quvvatlash choralari taqdim etish orqali 5 mingta tadbirkorlik loyihalari amalga oshiriladi. Shuningdek, “Biznesni kafolatlash milliy kompaniyasi” tashkil qilinadi.

2026–2027-yillarda “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJ (TRK) tomonidan 4 trillion so‘mlik moliyaviy qo‘llab-quvvatlash choralari taqdim etish orqali 5 mingta tadbirkorlik loyihalari amalga oshiriladi. Bu prezidentning 26-sentabrdagi “Tadbirkorlik subyektlarini yangicha yondashuvlar asosida qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida [PF-176-son] ko‘zda tutilgan.

Hujjat prezidentning tadbirkorlar bilan V ochiq muloqotida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni kengaytirish maqsadida qabul qilingan. Tadbirkorlar yangicha yondashuvlar asosida qo‘llab-quvvatlanadi.

Farmonga ko‘ra, 2025-yil 1-noyabrdan TRK tomonidan tadbirkorlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan quyidagi qo‘shimcha instrumentlar joriy etiladi:

tadbirkorlarni “champion” tadbirkor toifasiga olib chiqishga ko‘maklashish uchun ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish loyihalariga tijorat banklari orqali 10 mlrd so‘mgacha kreditlar ajratish uchun resurs joylashtirish;

kichik tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va “yashil” iqtisodiyot yo‘nalishidagi mikroloyihalariga tijorat banklari tomonidan 500 mln so‘mgacha ajratilgan kreditlarni quyidagi shart va hollarda qayta moliyalashtirish:

ajratilgan kreditning foiz stavkasini 6 foizgacha, biroq Markaziy bank asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkagacha kamaytirish;

kamida 1 yil faoliyat yuritgan va 2 nafar xodimi bo‘lgan tadbirkorlarining 5 ta va undan ortiq yangi ish o‘rinlarini yaratishni nazarda tutgan loyihalariga taqdim etish.

Tadbirkorlarga qo‘shimcha ravishda kafolatlar taqdim etiladi. Shuningdek, 2025-yil 1-dekabrden TRK tomonidan qo‘shimcha ravishda kafolat yoki kafillik quyidagi shartlarda taqdim etiladi:

yirik tadbirkorlik subyektlariga 10 milliard so‘mgacha, biroq kredit, lizing, bank kafolati va akkreditivlarning 50 foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorda;

kompaniyaning kuzatuv kengashi qarori bilan belgilangan tartibda o‘rta va yirik tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va “yashil” iqtisodiyot yo‘nalishidagi yirik loyihalariga ularning aylanmasidan kelib chiqib, 10 milliard so‘mdan ortiq bo‘lgan miqdorda;

avval kafillikdan ijobiy foydalangan va yaxshi kredit tarixiga ega bo‘lgan tadbirkorlik subyektlariga amalda belgilangan kafillik miqdorini 1,5 baravargacha oshirgan holda;

garov ta‘minoti bo‘yicha yuzaga kelgan taqchillikni bartaraf etish uchun barcha toifadagi tadbirkorlik subyektlariga belgilangan miqdorlar doirasida ajratilgan kredit, lizing, bank kafolati va akkreditivlarga.

“Biznesni kafolatlash milliy kompaniyasi” AJ tashkil etiladi.

Prezident farmoniga asosan TRK muassisligida “Biznesni kafolatlash milliy kompaniyasi” tashkil qilinadi. Bu Tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni kengaytirish bo‘yicha yo‘l xaritasida ko‘zda tutilgan. Jamiyat o‘z faoliyatini noyabrdan boshlashi rejalashtirilgan. Unga qadar esa, TRK kafolat yoki kafillik berishda davom etadi. Qolaversa, TRKning “xizmatlar ipotekasi” va “ustav kapitaliga ulush kiritish” moliyaviy instrumentlarini tadbirkorlik subyektlariga taqdim etish vakolati “TRK Invest” MCHJga o‘tkaziladi.

Kredit (lizing) uchun resurs ajratish, kredit foiz xarajatlarini kompensatsiya qilish tizimi takomillashtiriladi. 2026-yil 1-yanvardan olis va borish qiyin bo‘lgan hududlarda ro‘yxatdan o‘tgan kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlariga ularga ajratilgan kreditlarning mos ravishda 1,5 milliard so‘mgacha va 5 milliard so‘mgacha bo‘lgan qismini kompaniya tomonidan Markaziy bank asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkasigacha qayta moliyalashtirish orqali kompensatsiya taqdim etiladi.

Bunda kambag‘al oilalar reyestriga kiritilgan oilalarning a‘zolari tadbirkorlik subyektlarida band bo‘lgan xodimlarning kamida:

5 nafarini tashkil qilganda - 2 foizgacha;

10 nafarini tashkil qilganda - 4 foizgacha;

20 nafarini tashkil qilganda - 6 foizgacha miqdorda qayta moliyalashtiriladi.<sup>[1]</sup>

“Yo‘l xarita”da quyidagi ustuvor yo‘nalishlar belgilandi:

Markaziy bankning banklar faoliyatini tartibga solish hamda nazorat qilishga oid institutsional salohiyatini takomillashtirish maqsadida qonunchilikka o‘zgartirishlar kiritish;

Bazel III standartini, shu jumladan ikkinchi (Pillar 2) hamda uchinchi (Pillar 3) ustunlarini to‘liq joriy qilish;

banklarda korporativ boshqaruv hamda tavakkalchiliklarni boshqarish tizimlariga doir talablarni takomillashtirish;

Markaziy bankning bank nazoratiga oid ichki jarayonlarini takomillashtirish hamda tavakkalchilikka asoslangan bank nazorati tizimini to‘liq joriy qilish;

banklar va bank guruhlarida konsolidatsiyalashgan nazorat tizimini joriy etish;

banklarni sanatsiya qilish mexanizmini yolga qo‘yish, shuningdek banklarni tugatish tartib-taomillarini hamda omonatlarni kafolatlash tizimini takomillashtirish;

banklarni nazorat qilishda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash;

moliyaviy barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan choralarni takomillashtirish.<sup>[2]</sup>

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda iqtisodiyotimizning kelajagi uchun bu soha vakillarini yana ham ko‘paytirish maqsadida imkoniyat va sharoitlar kengayib bormoqda. Prezidentimizning 26-sentabr 2025 yilda

“Tadbirkorlik subyektlarini yangicha yondashuvlar asosida qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni “PF-176-son”da ko‘zda tutilgan. Bu imkoniyatlardan foydalanib ish boshlayotgan tadbirkorlar ko‘p yutuqlarga erishmoqda. Bunday xizmatlarni yo‘lga qo‘yishda moliya tashkilotlarining o‘rni katta.<sup>[1]</sup>

Banklar o‘z xizmatlari bilan yurtimizning barcha joylarida tadbirkorlarga kredit xizmatlarini ko‘rsatib kelmoqda. “2025–2028-yillarda banklar faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan “Yo‘l xarita” tasdiqlandi. Bu xaritada banklarning dunyo reytingida tutgan o‘rni, imidji va rivojlanish strategiyasi ko‘rsatib o‘tilgan.<sup>[2]</sup>

### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:***

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, Tadbirkorlik subyektlarini yangicha yondashuvlar asosida qo‘llab quvvatlash chora tadbirlari to‘g‘risida, PF-176-son, 2025y 26-sentabr

2. “2025-2028-yillarda banklar faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan “Yo‘l xarita” markaziy bank malumoti.

3. Tadbirkorlik va ishga joylashtirish texnologiyasi asoslari: Z.Xudoyberdiyev; K.Z.Homitov; A.Murodov; L.K.Ko‘paysinova; N.U. Arabov; Toshkent, ilm ziyo 2017 y.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi PF-6079-son «Raqamli O‘zbekiston - 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 14 sentabrdagi PQ-306-son qarori “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab quvvatlash” kompleks dasturi.

## **FINANCIAL STABILITY AND RISK RESILIENCE OF UZBEKISTAN'S BANKING SYSTEM DURING GLOBAL ECONOMIC INSTABILITY**

***Tukhtaev Kamol***  
*TSUE, DMXM-25*

***Annotation:*** This research analyzes the mechanisms of commercial banks' financial stability and their resilience against risks under conditions of global economic instability. Using the example of the National Bank of Uzbekistan, the study examines the management practices of currency, credit, and liquidity risks. The research findings serve to develop proposals aimed at improving risk diversification, reserve formation, and stress-testing systems within the bank.

***Keywords:*** global economic instability, financial risk, risk management, commercial banks, currency risk, credit risk, liquidity risk, stress tests, banking stability, diversification.